

## QO'SHCHINOR ASARI. ALISHER NAVOIY VA MUSIQA

*Andijon davlat pedagogika inistituti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti  
Musiqqa ta'limi yo'nalishi 1-kur talabasi  
Uzoqova Saodatxon Kamaldin qizi*

***Annotatsiya:** Buxoro Shashmaqomining kelib-chiqishi va shakllanish jarayonlari, Sharq musiqqa san'atida maqomlarining o'rni hamda ularning dastlabki nazariy asoslari haqida asosli fikr yuritilgan. Maqomlarning nazariy asoslarini o'rganish masalalarida asosan ilmi iyqo' (ritm) nazariyasiga urg'u beriladi*

*Qo'shchinor asari maqom uslubida yaratilgan yirik shakldagi Buxoro ashulalaridan hisoblanib , ikki turli yo'llardagi cholg'u kuylar nomi asosida yozilgan. Bular:*

- 1. Jazoir kuyi asosida*
- 2. Ozarbayjon xalq kuylari negizida yaratilgan .*

***Kalit so'zlar:** Musiqqa. Maqom. Cholg'u. San'at. Xamsa. Kuy. Bastakor. G'azal. Nay. Adabiyot. Folklor.*

Ajdodlarimiz tomonidan meros bo'lib kelayotgan milliy musiqamiz an'analarini o'rganish va ularni butunjahon tamadduni taraqqiyotiga xizmat qildirishdek, tarixiy vazifani tabdil etganligi xalqimizning istiqlol yillaridagi madaniyat va san'at sohasida erishgan ulkan ma'anaviy ozuqa bo'ldi. Jahon musiqqa merosining ulkan sarchashmasi hisoblangan Shashmaqomning YuNESKO tomondan "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" deb e'tirof etilishi katta tarixiy voqea hisoblanadi. Ota-bobolarimizdan qolgan mo'tabar musiqiy merosni nafaqat asrab-avaylash, balki kelasi avlodlarga tortiq qilish ham bugungi vazifamizdir.

Xalq o'g'zaki ijodi hamda xalq kuylari xayotimda muhim ro'l o'ynaydi. Xalq musiqasini ifodalashda xalq folklori "Folk"-xalq, "lore"-donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, "xalq donoligi,xalq donishmandligi" ma'nosini anglatadi. Folklor qabila, urug', elat, xalq yoki millatning,mafkurasi va psixalogiyasini aks ettiradi. Folklor asarlari jonli ijro jarayonidagina yashaydi. Uning ayrim janrlarida so'z va kuy yetakchi bo'lsa , ayrimlarida sahna san'ati ustun turadi. O'zbek folklori xalqimiz badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, so'z sanatining og'zaki turi sanaladi. O'ta milliy ,tarixiy, badiiy-estetikhodisa sanaluvchi qo'shiqlar millatning poetic xotirasi,bilimlar qomusi, tuganmas ma'naviy boyligisifatida juda qadim zamonlardan to hozirgacha yaratilib, kuylanib kelinmoqda. Xalq qo'shiqlarida insonning ruhiy olami, ichki kechinmalari, ko'ngilli va ko'ngilsiz voqealar, sevgi iztiroblari his-tuyg'ular orqali aniq badiiy obrazlarda gavdalantiriladi. Alisher Navoiy "Qo'shiq" ning tor ma'noda janr tushunchasiga egaligiga alohida diqqat qilib yozadi: " Yana Qoshiqdurkim, org'ushtak usulida shoyidur va ba'zi advor kutubida ul usul bo'libtur va ul surud a'robining teva surur hudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe bo'lur , aning asli bu na'vdurkim bayt:

Vahki yl oy hasrati dardi dog'i fiqrati,

Ham erur jonimga o't ham hayotim ofati.

Navoiy bunda kuy bastalagan , vale aruzda bitilgan xalq qo'shig'ini ko'zda tutadiki , hozir bunday xodisa "ashula" istilohi ostida qo'shiqdanfarq qilinadi va qo'shiqning ichki bir xili sifatida tushuniladi. Alisher Navoiyning yana bir go'zal g'azali " Qo'shchinor" ham xalq ijodida ijro etilib kelinmoqda.

### **Qo'shchinor asari**

#### **Navoiy g'azali**

Navoiy g'azali Junun Toshin urib har yon yangi dog'imni afgor et,

Tilimdin loladek ishq ichra Toshimni namudor et.

<sup>1</sup> O'zbek xalq og'zaki ijodi "Musiqa" nashriyoti Toshkent 2010 5-7-25-73 bet

Chu majnun qilding endi, ey, mug'anniy, go'sha tobingni.  
 Ko'ngul savdosi taskini uchun bo'ynimg'a tummor et  
 Soching kufrida o'lsam, qabrim uzra ko'yma xirkamni  
 Chekib har torini bir barhaman beliga zunnor et.  
 Desang og'zin ko'ray, ey aql, markaz nuqtasin ista,  
 Vale shart ushbukim, aw al quyosh davrini parkop et.  
 Imorat tarhidur naolu alifdin har taraf ko'ksun,  
 Vafo qasrin qo'porsang, bu binolar uzra devor et.  
 Erur maqsad yiroq, vodiy uzun, tun tiyra, yo'l burtoq  
 , Bu yo'lda salb etib o'zluk yukin, o'zni sabukbor et  
 .Navoiy o'lsa tirguzgil yuziga yuz qo'yib,  
 ya'ni Yuziga suv urub ul uyqusidin oni bedor et.

Ushbu asar  $\frac{3}{4}$  o'lchovda re minor tanalligida yozilgan. Boshlanishi birinchi oktava re notasidan boshlanib, avji ikkinchi oktava si notasigacha chiqadi. kuyda ko'proq ligalar ishlatilgan.

Ushbu asar Alisher Navoiy g'azaliga mansub. So'z mulkining sultoni A.Navoiy musiqa ilmini ham chuqur egallagan. Navoiy Abu Nasr Farobiy va Abu Ali Ibn Sino ilmiy-musiqiy qarashlarini rivojlantirib, musiqa ilmini o'rganishni asosan ikki qismga bo'ladi: ilmi ta'rif ( kompozitsiya ilmi-musiqiy tovushlar-nag'malar tuzilishini o'rganuvchi fan) va ilmi iyqo (musiqiy ritm) hamda ikki yo'nalishda olib boradi: ilmi advor ( 12 maqomga oidilm) va fan musiqiy ( musiqa san'ati).

<sup>2</sup>Ham vocal san'ati(naqsh) ,ham cholg'u san'ati (peshrav) bo'yicha kuylar yaratgan deb takidlanayotgan Navoiy musiqa asarlaridan ba'zilar bizning davrga yetib kelgan, degan taxmin bor. Jumladan, Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida " Qari Navo" yoki "Qari Navoiy" kuyi haqida yozadi.Navoiy o'zbek musiqa madaniyati rivojiga og'zaki an'anadagi o'zbek ustozona musiqasi taraqqiyotiga ulush qo'shgan ulkan san'atkor ekanligi

<sup>2</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" 162 b.  
<sup>2A</sup> Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" 1993  
<sup>3</sup> Rajabov I. "Maqomlar

haqida o'zbek musiqasining bilimdonlari Abdurauf Fitrat va Is'hoq Rajabovlarning zalvarli tadqiqotlarida dalillar bor. Navoiyning o'zi bu haqida "Sab'ai sayyor"da shunday yozadi:

San'atim anda soz chalmoq ishi,

Bilmayin men kabi ishini kishi.

Ilmi advoru fanni musiqiy,

Mendin ul ilm ahli tahqiqi.

O'z.R.F.A Beruniy nomidagi Sharqshunoslik inistituti kitob xazinalarida saqlanayotgan 43 bayozni tashkil etuvchi g'azallarning aksariyati Navoiyga mansubdir, chunki, Navoiy qo'llagan she'riy usullar , vaznlarasrlar davomida buyuk musiqachilarning necha avlodi tomonidan yaratilgan maqom va maqom yo'lidagi o'zga musiqiy shakllar qiymatiga ,ularda qo'llanilgan usullar, ritmga mutanosibdir.

Shuming uchun ham necha asrdan beri, bizning kungacha Navoiy so'zlari bilan ijro etib kelinayotgan ashulalar, maqom,suvorish yoki Toshkent-Farg'ona maqom yo'llaridagi: "Bayot-II" , "Ushshoq", "Qo'shchinor", "Q'shchinor-II", "Chorgoh-III" va boshqalar o'zbek mumtoz musiqasining husnu tarovatini ko'rsatuvchi asarlardir.

Navoiy so'zlariga kuy bastalash an'anasining asoschilari uning zamondoshlaridan- Hoji Yusuf Burxon va Hoji Abdullox Marvarid bo'lsa, yaqin o'tmishda Hoji Abdulaziz, Mulla To'ychi Hofiz, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov,Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Fattoxon Mamadaliyev, Orifxon Xotamov bu an'ananing davomchilari bo'lishgan . Hozirda esa Abduhoshim Ismoilov, Maxmudjon Tojiboyev singari bastakorlar Navoiy so'zlariga kuy bastalash sharafiga musharraf bo'lishgan.

Zayniddin Vosifiy qayd etadiki: "Oliyhazrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar muallimi soniy Abu Nasr Forobiy hayot bo'lganlarida unga shogirdlik sirg'asini qulog'iga taqib olardi". Abdurauf Fitrat yozadi: "Navoiyning o'zi ham musiqiyda bir risola yozg'on deb so'ylanmakdir". Afsuski, Navoiyning musiqiy risolasi hali topilgani yo'q.

Ammo, Navoiyning adabiybadiiy va adabiy-ilmiy merosini o‘rganar ekanmiz, ko‘z oldimizda ulug‘ shoir, buyuk mutafakkir va ulkan musiqashunos siymosi gavdalanadi. Chunki, uning mazkur

asarlarida musiqa nazariyasi va amaliyotiga oid turli masalalar keng, atroflicha yoritilgan, o‘n ikki maqom tizimi davrlari, musiqiy cholg‘ular tasnifi va ta‘rifi o‘z aksini topgan.

Navoiy hazratlari o‘zinig boy ijodiy merosida cholg‘ularning ilohiy va falsafiy jihatlaridan kelib chiqib tashbihlar ya‘ni o‘xshatishlar asosida badiiy talqin etadi, hamda musiqaning o‘ziga hos parda tizimlaridan bohabar holda ifodalaydi yoki cholg‘uning ohang xususiyatlariga alohida ta‘rif beradi. Navoiy ijodining ayni cholg‘ushunoslik masalasi to‘g‘risida bir qator fikrlarni biz A. Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida, I.Rajabovning “Maqomlar” monografiyasida o‘qishimiz mumkin. Navoiy o‘z asarlarida musiqiy cholg‘ularning

shaklu shamoyili, ko‘rinishlaridan toki ijro mezoni, ohang tarannumi xususiyatigacha falsafiy qarashlari bilan ifodalaydi. Uning musiqiy iboralar bilan uyg‘unlashgan har bir satrlari chuqur ma‘noli, musiqiy atamalarning asar g‘oyasi bilan qorishib ketgani bilan alohida ajralib turadi. U o‘z g‘azallarida cholg‘uga murojaat etsa, cholg‘u tabiati har tomonlama o‘z aksini topadi. Jumladan, quyidagi baytda Navoiy nay cholg‘usini keltiradi:

*Otashin may birla, ey soqiy, qizitqil bazmni,  
Mutribo, ul o‘tni tez etmakka ol og‘zingga nay.  
 (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 581)*

Shunday qilib, Alisher Navoiy bizning adabiyotimizni boyitibgina qolmay, musiqa ilmida ham eng zarur manbaalarni qoldirgan.


#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy “Xamsa” 1986
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” 1989
3. A.Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va unig tarixi” 1993
4. I.Rajabov “Maqomlar” 2006

5. O'zbek xalq og'zaki ijodi "Musiqqa" nashriyoti Toshkent 2010

## QO'SHCHINOR

M.M. ♩ = 84-88



Ju-nun to - shiq u-rib har - yon  
 7 yan-gi do - g'im - ni af - gor et, ti - lim - din lo -  
 13 -la- dek\_ishq ich - ra to - shim - ni na- mu - dor  
 18 et. Chu maj-nun qil - ding en - di,  
 24 ey, mu-g'an - niy, go' - sha to - bing - ni,  
 29 ko'n-gul sav - do - si tas - ki - ni u-chun bo'y-  
 34 nim - g'a tum - mor et (oh\_ yo - rey yon-di jo -  
 40 -ni-mey bu jo - nim sen - din ay - lan - sin).  
 45 So-ching kuf rii - da o'l - sam,  
 52 qab - rim uz - ra qo'y - ma xir - qam - ni,

